



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TALABALARDA KASBIY LOYIHAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH

Xamidova Feruza Turdiyevna
Navoiy davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik asoslari yoritiladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda mazmunga aloqador hamda tashkiliy-metodik tamoyillar tahlil qilinadi. Didaktika fanining shakllanishi va rivojlanishida Ya.A.Komenskiyning pedagogik qarashlari, xususan "Buyuk didaktika" asaridagi g'oyalar muhim nazariy asos sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'limning ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ko'rgazmalilik, onglilik va faollik kabi tamoyillarining talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari, pedagogik jarayon subyektlarining o'zaro hamkorligi hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning roli tahlil etiladi. Natijada zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini rivojlantirish muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, didaktika, kasbiy kompetensiya, kasbiy loyihaviy kompetensiya, ta'lim tamoyillari, ilmiylik tamoyili, tizimlilik va izchillik, ko'rgazmalilik tamoyili, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik jarayon, ta'lim mexanizmi, innovatsion ta'lim, talaba faolligi.

ВНЕДРЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПРОЕКТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Хамидова Феруза Турдиевна
Навоийский государственный университет, доцент

Аннотация

В данной статье рассматриваются дидактические основы развития профессиональных компетенций студентов посредством внедрения образовательных технологий. Анализируются содержательные и организационно-методические принципы организации образовательного процесса. Педагогические идеи Ян Амос Коменский, в частности положения его труда «Великая дидактика», рассматриваются как важная теоретическая основа формирования дидактики. Также раскрывается значение таких принципов обучения, как научность, системность, последовательность, наглядность, сознательность и активность в развитии профессионально-проектных компетенций студентов. В статье анализируются механизмы внедрения образовательных технологий в учебный процесс, взаимодействие субъектов педагогического процесса и роль личностно-ориентированного подхода. В результате обосновывается, что развитие творческого мышления студентов, их способности к самостоятельному принятию решений и интереса к научно-исследовательской деятельности является важным фактором современной образовательной среды.

Ключевые слова: образовательные технологии, дидактика, профессиональная компетенция, профессионально-проектная компетенция, принципы обучения, принцип научности, системность и последовательность, принцип наглядности, личностно-ориентированное обучение, педагогический процесс, образовательный механизм, инновационное образование, активность студентов.

IMPLEMENTING MECHANISMS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL PROJECT COMPETENCIES IN STUDENTS

Khamidova Feruza Turdiyevna
Navoi State University, Associate Professor

Abstract

This article discusses the didactic foundations of developing students' professional competencies through the implementation of educational technologies. Content-related and organisational-methodological principles used in the organisation of the educational process are analysed. The pedagogical ideas of Jan Amos Comenius, particularly the concepts presented in his work *Great Didactics*, are considered as an important theoretical basis for the development of didactics. In addition, the importance of such educational principles as scientificity, systematicity, consistency, visualisation, consciousness, and activity in the development of students' professional project competencies is revealed. The article also analyses the mechanisms of implementing educational technologies in the learning process, the cooperation of subjects within the pedagogical process, and the role of a learner-centred approach. As a result, it is substantiated that developing students' creative thinking, independent decision-making skills, and interest in research activities is an important factor in the modern educational environment.

Keywords: educational technologies, didactics, professional competence, professional project competence, principles of education, principle of scientificity, systematicity and consistency, principle of visualisation, learner-centred education, pedagogical process, educational mechanism, innovative education, student activity.

Ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador tamoyillari hamda tashkiliy-metodik tamoyillari. Ma'lumki, didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida keng yoritib berilgan. Ushbu asarda ta'lim texnologiyalarini tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari hamda uning tashkiliy shakllari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida didaktikaning mumtoz savollari: «nimaga o'qitish?», «nimani o'qitish?», «qanday o'qitish?» va «qayerda o'qitish?» kabi savollarga javob izlanadi. Bu jarayonda didaktika va metodika o'zaro mustahkam aloqa hamda uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, aniq bir fan yoki predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari esa xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Jadval 1.

Didaktika va metodika o'rtasidagi bog'liqlik

Savol	Izlanish maqsadi	Didaktika roli	Metodika roli
Nimaga o'qitish?	Ta'limning maqsad va vazifalarini aniqlash	O'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi	Aniq fan yoki predmet uchun maqsad va vazifalarni amaliylashtiradi
Nimani o'qitish?	O'quv mazmunini tanlash	Bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning umumiy asoslarini belgilaydi	Fan yoki predmet bo'yicha o'quv materialini tanlaydi va moslashtiradi
Qanday o'qitish?	Ta'lim jarayonining usullarini aniqlash	O'qitish prinsiplari va qonuniyatlarini belgilaydi	Maxsus metodlar va texnologiyalar orqali

			amaliy qo'llashni ta'minlaydi
Qayerda o'qitish?	Ta'lim muhitini va sharoitlarini aniqlash	Umumiy ta'lim sharoitlari, maktab yoki sinfning ta'limga ta'sirini ko'rib chiqadi	Konkret fan yoki predmet uchun muhit va tashkiliy shakllarni yaratadi

Shaxsning rivojlanishi hamda talabalarda ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashuvi, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb qilish, bilish jarayonini madaniyatni o'zlashtirish bilan uyg'unlashtirish so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi.

Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyiliga ko'ra, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik hisoblanadi. Talabalarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilim berilishi mazkur bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni uning tabiati bilan uyg'un holda tashkil etilishi lozim.

Ta'limning mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini shakllantirish, balki insonning rivojlanish, yuksalish va o'sish jarayonida o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini anglashiga xizmat qiladi. Ta'lim butun umr davom etadigan jarayon bo'lib, u hech qanday chegaraga ega emas. U insonga o'z dunyosini hamda boshqa madaniyatlarni anglash, turli madaniyat vakillari fikrini eshitish, ularni qadrlash va tushunish imkonini beradi.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili ham aynan shu mazmun-mohiyatni ifodalaydi. Ta'lim jarayoni insonning tabiatga, jamiyatga, boshqa insonlarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'ulari va bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, natijada individual ijodkorlik shakllanadi. Bunday individuallik nafaqat madaniyatning meros sifatida saqlanishini, balki uning rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Mazkur yondashuv pedagogikadagi yangi paradigma — shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etadi. U jamiyatdagi yangicha qadriyatlar, ya'ni shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishi, o'z-o'ziga ta'lim berishi va o'zini-o'zi loyihalash kabi jarayonlarni aks ettiradi.

Talabalarda kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'limning ilmiylik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyil talabaning o'quv materialidagi qonuniyatlarni to'g'ri aks ettirishi, ularni tushunishi va chuqur o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Bu tamoyil ta'lim mazmunining zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos bo'lishini taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida talabalar ob'ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonuniyatlarni, zamonaviy ilmiy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga, ular muayyan sohaning asosiy nazariyalari va konsepsiyalari bilan tanishadilar.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi ham talabalarda kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy didaktikada bu tamoyil ta'limning hayot bilan, nazariyaning esa amaliyot bilan uzviy bog'liqligi sifatida talqin etiladi.

Fundamental bilimlar ilmiylik, chuqurlik va tizimlilik bilan tavsiflanadi. Bunday bilimlar insonning yuksak intellektual salohiyatini rivojlantiradi, tadqiqotchilik tafakkurini shakllantiradi hamda bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga nisbatan sekin eskiradi va ko'proq insonning fikrlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining tizimlilik hamda nazariy va amaliy jihatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab qiladi. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga asoslanadi. Bu

tamoyil ta'lim jarayonida barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili o'quv materialining mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinishini, ilgari o'tilgan bilimlarning mustahkamlanishini hamda yangi bilimlar bilan boyitilishini ta'minlaydi. Bu jarayon talabalarning mustaqil va uzluksiz ravishda bilim olish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, shakli va usullarining o'zaro uyg'unligini, shuningdek, o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni taqozo etadi. Murakkab masalalarni hal etish oddiy masalalarni o'zlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili talabalarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishini, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishini ta'minlaydi. Talabalarning faolligi reproduktiv yoki ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Ta'limda ko'rgazmalilik tamoyili o'qitish samaradorligini oshiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Uning fikricha, haqiqiy bilimlar insonning sezgi organlari orqali o'zlashtiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, axborotni faqat eshitish orqali qabul qilish samarasi taxminan 15 %, ko'rish orqali esa 25 % ni tashkil etadi. Agar eshitish va ko'rish bir vaqtda amalga oshirilsa, o'zlashtirish samaradorligi 65 % gacha oshadi.



1-rasm. Axborot qabul qilish samaradorligi

Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam o'zlashtirish tamoyili ham muhim didaktik talab hisoblanadi. Bu tamoyil talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini uzoq vaqt saqlab qolishi va ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishini ta'minlashga xizmat qiladi. NTa'limning tushunarliigi tamoyili esa talabalarning yosh xususiyatlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olishni talab etadi. Bu tamoyil o'quv jarayonining talabalarda qiyinchiliklarni yengib o'tish istagini shakllantirishi hamda muvaffaqiyatdan quvonish tuyg'usini uyg'otishini nazarda tutadi.

Ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda ijodiy fikrlash, mas'uliyat hissi, ilmiy tadqiqot olib borish, tahlil qilish va ilmiy adabiyotlardan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Eng muhimi, talabalarning o'qishga, ilm-fanga va tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Shu bilan birga, o'quv maqsadlariga erishish darajasi oldindan belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Natijada ta'lim beruvchining vaqti teжалadi, talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojlanadi hamda bilimlarni baholashning sifat ko'rsatkichlari oshadi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyalarini didaktik muhitga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, tahlil qilish qobiliyati va shaxsiy intellektual salohiyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
2. Aliev I.T. "Pedagogika va psixologiya" o'quv qo'llanma – Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2012 yil 244 bet
3. Azizzadjayev N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat" O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti "Toshkent"-2006. 160 bet
4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil yetishning nazariy asoslari: Ped. fan.dok.dis. avtoreferati.– Toshkent: 2003. – 44 b.
5. To'rayev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – T.: 2018. – 48-b.
6. Sidiqova D.Sh. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi. Ped.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. – Buxoro.: 2023. – 47-b.
7. Лйаш А.А. Методика обушения будущих ушителей информатики исролзованию информасионно-образователных систем в профессиональной дейателности: Автореф. Дисс. ...докт. Ред. наук. – Москва: 2015– 27 с.
8. Sh. Sharipov. Kasb ta'limi o'qituvchisi kompetentligini ta'minlashda
9. ilmiy-metodologik yondashuvlar/ <http://dr-sharipov.com/2014/03/02/>
10. U.A.Fayziyeva. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy sifatlarni rivojlantirish. Ped.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. – Toshkent: 2023. –B. 57-87
11. <https://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi
12. <https://vancouverok.com/doshkolnoe-obuchenie-i-yasli-v-kanade-vse-chto-nuzhno-znat>